


VII. KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25- sentyabrdagi “Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomini tasdiqlash haqida”gi 274- son qaroriga muvofiq korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Korxona va tashkilotlarning yillar kesimida soni
(1- oktyabr xolatiga ko'ra, birlikda)
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)




■ Ro'yxatdan o'tgan ■ Faoliyat ko'rsatayotgan ■ Yangi tashkil etilgan

Yuridik shaxs:


Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka yega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga yega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda davogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

**Ro‘yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat
turlari bo‘yicha taqsimlanishi,
(2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o‘tgan yilga nisbatan o‘sish surati, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (128,9 foiz), savdo (132,5 foiz), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (111,4 foiz), sanoat (121,5 foiz), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (119,9 foiz) axborot va aloqa (116,6 foiz), qurilish (114,8 foiz), tashish va saqlash (112,8 foiz) va boshqa turlar (107,6 foiz) sohalariga to‘g‘ri keladi.




Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(1- oktabr holatiga ko‘ra, ming birlikda va o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati bilan)




Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra 47 306 tani tashkil yetib, o‘tgan yilning shu davriga solishtirilganda 7 953 taga yoki 120,2 % ga o‘sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 30,7 % savdo, 21,7 % sanoat, 7,7 % qurilish, 5,4 % yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, 4,8 % qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, 3,6 % tashish va saqlash, 2,7 % axborot va aloqa, 2,3 % sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va 21,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

**2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning
xududlar kesimida soni va o‘sish sur’ati, %**
(dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz, birlikda)



Faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)




2021 yil 1- oktabr holatiga 41 264 ta faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar soni, shundan xususiy korxona – 11 929 ta, oilaviy korxona – 5 883 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyat – 22 751 ta, aksiyadorlik jamiyatni – 52 ta, unitar korxona – 236 ta va boshqa turdagи korxonalar – 413 tani tashkil etadi.

Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni
(1- oktabr xolatiga ko‘ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021-yilning 1- oktabr holatiga ko‘ra 23,4 mingtani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 5,1 mingtaga yoki 127,8 %ga oshganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 22,8 mingtani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 4,9 mingtaga yoki 127,8 %ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4,4 mingtani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1,4 mingtaga yoki 145,3 %ga oshganligini ko‘rish mumkin.




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning xududlar bo'yicha soni (yanvar-sentabr oylarida)




2021- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (13,0 %), Qo'qon shahar (10,8 %), Marg'ilon shahar (7,3 %), Quva tumani (5,5 %), Oltiariq tumani (5,4 %), Uchko'prik tumani (5,0 %), Bag'dod tumani (5,0 %), Toshloq tumani (5,2 %), Buvayda tumani (5,1 %), O'zbekiston tumani (4,9 %), Dang'ara tumani (4,8 %), Rishton tumani (4,4 %), Farg'ona tumani (4,3 %), Beshariq tumani (4,2 %), Qo'shtepa tumani (3,6 %), Quvasoy shahar (3,5 %), Furqat tumani (3,1 %), Yozyovon tumani (2,8 %), So'x tumani (2,1 %) hissalariga to'g'ri keladi.


Kichik korxona va mikrofirmalar soni
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, birlik)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, birlikda)




**Hududlar bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, birlikda)**



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2021- yil 1- oktabr holatiga ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 527 tani tashkil etdi, bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 77 taga yoki 117,1 % ga o‘sigan.




Xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni



Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

(2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



**Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi**
(1- oktabr xolatiga ko‘ra, yillar kesimida, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	185	254	387	429	516
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	2	6	25	26	27
Sanoat	134	172	229	248	279
Qurilish	4	7	9	12	24
Savdo	16	32	68	75	106
Tashish va saqlash	4	6	9	13	13
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	7	11	13	15	16
Axborot va aloqa	3	2	4	4	4
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	5	5	8	8	9
Boshqa turlar	10	13	22	30	38

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining xududlar kesimida soni


(2021-yil 1-oktabr xolatiga, birlikda)

	<i>Ro'yxatga olinganlar</i>	<i>2021 yil yanvar-sentabr</i>		
		<i>yangi tashkil etilgan</i>	<i>tugatilgan</i>	
Viloyat bo'yicha	527	62		6
<i>shaharlar:</i>				
Farg'ona	175	22		3
Qo'qon	70	8		
Quvasoy	32	3		
Marg'ilon	26	3		
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	21	4		1
Qo'shtepa	9	1		
Bag'dod	15	3		
Buvayda	10	1		
Beshariq	8	1		
Quva	24	1		
Uchko'prik	21	4		
Rishton	13	1		
So'x	6	1		
Toshloq	18	4		
O'zbekiston	26	3		
Farg'ona	25	1		1
Dang'ara	16			1
Furqat	7	1		
Yozyovon	5			

Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- oktabr xolatiga 6 109 tani tashkil etib, ulardan 5 883 tasi yoki 96,3 % faoliyat yuritmoqda.

**Oilaviy korxonalarning yillar kesimidagi soni
(birlikda)**



**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy
faoliyat turlari bo'yicha soni,
(2021- yil 1- oktabr xolatiga ko'ra, birlikda)**

